



Yevropa Ittifoqi moliyaviy
ko'magi bilan ta'minlangan







unicef 
Har bir bola uchun

BOLALAR HUQUQLARIGA OID MILLIY QONUNCHILIK ASOSLARI



Mazkur nashr Yevropa Ittifoqining moliyaviy ko'magi yordamida tayyorlangan. Uning mazmuniga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va UNICEF mas'uliyatli bo'lib, bu masala bo'yicha Yevropa Ittifoqining nuqtai nazarini aks ettirmasligi mumkin.

Bolalarning huquqlari qonun bilan himoya qilinadi. Keling sizga misollar yordamida bolalarning huquqlariga qaysilar kirishini tushuntiramiz. Masalan,



va boshqa huquqlar kiradi.

Ushbu qo'llanma yordamida bola huquqlari haqidagi asosiy qonunlar bilan tanishib chiqasiz. Keling dastavval bu qonun hujjatlarini sanab o'tamiz:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;



O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi;



"Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun.



Ushbu qonun hujjatlarida:



har bir bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaat-
lari ta'minlanishi;



bolaning hayoti, salomatligi va qadr-qimmati himoya
qilinishi;



bolani kamsitish, zo'ravonlik va qo'pol muomilaga duchor
bo'lmasligi;



bolalar rivojlanishi uchun zarur choralar haqida so'z boradi.

Bundan tashqari bolalarning huquqlariga tegishli bo'lgan ko'plab
boshqa qonunlar, qarorlar va boshqa hujjatlar ham bor.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bola huquqlariga tegishli bo'lgan moddalar sharhi

Konstitutsiya eng asosiy qonunimiz hisoblanadi.

Bolalar huquqlariga tegishli bo'lgan eng asosiy hujjat ham – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hisoblanadi. Konstitutsiya barcha hujjatlarning eng ustuni bo'lib, qolgan barcha hujjatlar aynan konstitutsiyaga asosan yoziladi.

Konstitutsiyada bolalar huquqlariga oid ko'plab moddalar bor. Ushbu moddalar bolalarning huquqlarini himoya qilish bilan birga davlat tomonidan kafolatlanishi ham ko'rsatib o'tilgan.



Ta'lim olish huquqiga oid normalar

Konstitutsiya har bir bolaning ta'lim olish huquqini kafolatlaydi.

44-modda. Xususan, 44-moddada bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan, uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi, deya belgilangan.



Bu albatta bolalarni mehnatning qiyin shakllaridan himoya qilish, ularni sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishishlari uchun muhim huquqiy kafolat hisoblanadi.

50-modda. Bu modda har bir bolalarning ta'lim olish, o'qish huquqi haqida bo'lib, bolalar bog'cha, maktab, universitet va institutlarda ta'lim olishi mumkinligi belgilangan.

Ta'lim tashkilotlarida (bog'cha, maktab, universitet, institut) alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanishi belgilangan.

Inklyuziv ta'lim deganda – alohida ta'lim ehtiyojlari va hamma bolalarning imkoniyatlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda, ta'lim muassasalarida o'qiyotgan barcha o'quvchi bolalar uchun ta'lim olishdan teng foydalanishi tushuniladi.



Boshqacha aytganda, bu rivojlanishda nuqsoni bo'lgan va sog'lig'ida muammosi bo'lgan bolalar nafaqat maxsus maktablarda, balki umumta'lim maktablarida ham o'qish huquqiga ega ekanligini anglatadi.

51-modda. Bu moddada bolalar davlat ta'lim tashkilotlarida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli ekanligi belgilangan. Universitet, institutlarga davlat granti asosida kiradigan bo'lsangiz, bakalavriat va magistratura bosqichida bepul ta'lim olishingiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida bola huquqlariga tegishli bo'lgan moddalar sharhi



Bolalar huquqlariga oid yana bir muhim hujjat bu – bu O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi.

Oila kodeksida ham bolalar huquqlariga oid ko'plab normalar bor.

Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi

Har bir bola **oilada yashash huquqiga ega**. Oila tarkibiga uning **ota-onasi** kiradi ya'na shuningdek, **bobosi, buvisi** yoki **boshqa qarindoshlari** ham kirishi mumkin.

Oilada bolaning tarbiyasi bilan **ota-onasi** shug'ullanadi.

Boshqa yaqin qarindoshlar ham tarbiya masalasida ota-onaga yordam berishi mumkin. Odatda bolalar tarbiyasida ota-onaga bobosi va buvisi ham yordam beradi.



Har bir bolaga tug'ilganidan keyin bolaning ismi va familiyasi yozilgan guvohnoma beriladi. Shuningdek, guvohnomada bolaning ota-onasining ismi, familiyasi, sharfi yoziladi.

Oila kodeksining **96-moddasida**, ota-onalar bolalarini **18 yosh-ga to'lguniga qadar** o'sib-ulg'ayishi uchun zarur bo'lgan ehtiyojlar bilan ta'minlashi kerakli ko'rsatilgan. Masalan, ota-onalar farzandlarini tarbiyalashlari, qo'llab-quvvatlashlari va ularning bilim olishlari uchun g'amxo'rlik qilishlari kerak.



Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, yetim qolgan bolalar ham oilada yashash va tarbiyalanish huquqiga ega.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, yetim qolgan bolalar haqida g'amxo'rlik qilish, tarbiyalash vasiylar, homiylar yoki homiylik ostidagi oilalar tomonidan amalga oshiriladi.



Har bir ota-ona **o'z ota-onalik huquqlarini amalga oshirishda** farzandlarining jismoniy, ruhiy salomatligi va axloqiy rivojlanishiga zarar yetkazmasligi kerak.

Bolalarni tarbiyalashda **zo'ravonlik, shafqatsizlik, qo'pollik, haqoratlash usullaridan** foydalanish ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga **taqiqlanadi**.



Har bir bola oilada uning manfaatlariga tegishli masalalar yuzasidan **o'z fikrini erkin bildirish** huquqiga ega.

“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunning sharhi

Bolalar huquqlariga oid eng muhim qonunlardan biri bu – “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun hisoblanadi. Ushbu qonunda hamma bolalarning huquqlari batafsil bayon qilingan.

Bundan tashqari, ushbu qonun Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasiga muvofiq bolaning asosiy minimal huquqlarini ta‘minlaydi.



Bolaning yashash huquqi

Yashash huquqi har bir bolaning eng muhim huquqlaridan biri hisoblanadi. Hech kim bolani yashash huquqidan mahrum qilishga haqli emas.



Bolaning individuallikka va uni saqlab qolishga bo'lgan huquqi

Har bir bola tug'ilgan paytdan e'tiboran familiya, ism, otasining ismini olish, millati va fuqaroligiga ega bo'lish huquqiga ega.



Bolaning fikrlash, soʻz, vijdon va eʼtiqod erkinligi huquqi

Har bir bola fikrlash, soʻz, vijdon va eʼtiqod erkinligi huquqiga ega.

Vijdon erkinligi deganda bi-ror-bir dinga eʼtiqod qilishi yoki qilmasligi hisoblanadi.



Bilim olish huquqi

Har bir bola bilim olish huquqiga ega. Bolalar bogʻcha, maktab, litsey, kollej, universitetda oʻqish orqali oʻzlarining bilimlarini oshirishi mumkin.



Mehnat qilish huquqi

Har bir bola mehnat qilish huquqiga ega.

Har bir bola o'zi istagan kasbni tanlashi mumkin.

Mehnat kodeksiga asosan **16 yoshdan** ishga qabul qilinadi.



Har bir bola qonunlarda belgilangan huquqlardan foydalanish huquqiga ega va hech kim bolalarning huquqlarini cheklashga haqli emas.

Barcha bolalar teng huquqlarga ega, bolalarni har qanday shaklda kamsitishga yo'l qo'yilmaydi.

Bola huquqlarining qonuniy kafolatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun va boshqa qonunlarda belgilangan.

Har bir bola ushbu hujjatning mazmunini yaxshilab o'rganishi hamda bilib olishi zarur.

Yevropa Ittifoqi zamonaviy nou-xaular, resurslar va taqdirларini bosqichma-bosqich birlashtirishga qaror qilgan 27 a'zo davlatdan iborat. 60 yil davomida, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamjihatlikda o'z chegaralarini kengaytirib keldilar; Ittifoqqa a'zo davlatlar madaniy xilma-xillik, bag'rikenglik va shaxs erkinligini kafolatlagan holda barqarorlik, demokratiya va barqaror rivojlanish hududini yaratdilar. Yevropa Ittifoqi o'z yutuqlari va qadriyatlarini ittifoqdan tashqarida bo'lgan mamlakatlar va xalqlar bilan baham ko'rish tamoyillarini ilgari suradi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi O'zbekiston Respublikasida jamiyat va davlat qurilishi sohasida norma ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosatini izchil amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasi adliya organlari tuzildi.

Adliya vazirligi Vazirlar Mahkamasiga, faoliyatining ayrim masalalari bo'yicha esa bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga hisobot beradi.

UNICEF tomonidan amalga oshirilayotgan barcha faoliyat va harakatlar har bir bolaning huquqlari va farovonligini himoya qilishga qaratilgan. Biz sheriklarimiz bilan o'z maqsadlarimizni amalga oshirishda birgalikda 190 mamlakat va hududlarda faoliyat olib borib, bunda bizning asosiy e'tiborimiz dunyoning barcha chekkalaridagi bolalarning manfaati uchun eng himoyasiz va chetlatilgan bolalarga qaratishga intilamiz. UNICEF bolalar huquqlarini hurmat qiladigan dunyoga o'z qarashlarini amalga oshirish uchun O'zbekistondagi davlat institutlari, fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari, professional uyushmalar va ilmiy muassasalar bilan, shuningdek, xalqaro hamkorlar bilan yaqin hamkorlikda ish olib boradi.

Yevropa Ittifoqining O'zbekiston Respublikasidagi delegatsiyasi

107B Amir Temur ko'chasi, Xalqaro biznes markazi 100 084 Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998 78 120 16 01 /02 /03 /04

Email: delegation-uzbekistan@eeas.europa.eu

Website: www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan_en

Facebook: www.facebook.com/edudeluzb

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi

O'zbekiston Respublikasi 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko'chasi, 5

Tel: +998 71 207 04 43

Email: info@adliya.uz

Website: www.adliya.uz

BMTning O'zbekistondagi Bolalar jamg'armasi

Poytakht Business Markazi 16 Sharof Rashidov ko'chasi 100 029 Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998 71 233 95 12

Email: tashkent@unicef.org

Website: <https://www.unicef.org/uzbekistan/>

Facebook: <https://www.facebook.com/unicefuzb/>

Facebook: [@unicefuzbekistan](https://www.facebook.com/unicefuzbekistan)